

**TALABALAR AKADEMIK O'ZLASHTIRISHIDA INDIVIDUAL-PSIXOLOGIK
XUSUSIYATLARNING AHAMIYATI****Jabborova Malohat Azimovna****Shahrisabz davlat pedagogika instituti****Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)****<https://doi.org/10.5281/zenodo.15501098>**

Annotatsiya: Mazkur maqolada talabalar akademik o'zlashtirishida individual-psixologik xususiyatlarning ahamiyati tahlili yoritilgan. Shuningdek talabalarning shaxsiy, intellektual fazilatlarini aniqlash va rivojlantirishga yo'naltirilganlikni oshirish, shaxsning o'zini o'zi belgilashini rag'batlantirish, individuallashtirish va o'z-o'zini rivojlantirishga yordam berish ilmiy jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: akademik o'zlashtirish, ta'lim jarayoni, talaba, individuallik, individual-psixologik xususiyatlar, motivatsiya.

Mavzu bayoni. Hozirgi vaqtda talabalarning o'zlashtirishi, ta'limda samaradorlik va muvaffaqiyatga erishish bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borildi. Ta'lim jarayonida talabalarning o'quv faoliyatini o'zlashtirish darajasi har xil bo'lishiga alohida e'tibor beriladi. Shu munosabat bilan ta'lim faoliyatining rivojlanishiga yordam beradigan yoki to'sqinlik qiladigan sabablarni aniqlash, ularni rivojlantirish yoki bartaraf qilishga doir choralar ishlab chiqish, ta'lim faoliyatining rivojlanish darajasini belgilovchi omillar mavjudligini tadqiq qilish lozimdir.

Bunday omillar sifatida talabalarning psixologik xususiyatlari: shaxsning kognitiv, motivatsion, xulq-atvor xususiyatlarini e'tiborga olish maqsadga muvofiqdir.

Ta'limda individuallikni rasmiy-dinamik xususiyatlari, o'quv faoliyati motivlari, o'quv faoliyatini tashkil etish uslublarini takomillashtirish natijasida talaba-yoshlarni bilim, ko'nikma, malakalar bilan qurollantirish, qobiliyati va iste'dodlarini rivojlantirish, ularning bilimi va tarbiyalanganlik darajasini aniqlay bilish, o'quv materiallarini to'g'ri tanlay olish kabi omillar talabaning akademik o'zlashtirishini muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Talabalar akademik o'zlashtirishi – ular egallagan bilim, ko'nikma va malakalarning to'laligi, chuqurligi, ongliligi hamda mustahkamligi darajasini anglatuvchi pedagogik mezondir. O'zbekistonda talabalar o'zlashtirishini yuqori sifat darajasiga olib chiqish milliy ta'lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardandir. Chunki talabalarning intellektual rivojlanishi hamda kasbiy tayyorgarligi ularning akademik o'zlashtirish darajalariga bevosita bog'liq.

“Talabaning akademik o'zlashtirishi” atamasi, odatda talabaning o'qish davomida olingan bilimlar, ko'nikmalar va kompetensiyalarni anglatadi. Bu, talabaning o'qish jarayonida qanday natijalarga erishganligini, fanlarni o'zlashtirishdagi muvaffaqiyatini va ilmiy faoliyatdagi yutuqlarini baholashga qaratilgan tushuncha hisoblanadi.

Akademik o'zlashtirish:

- ta'lim olish jarayonining rang-barangligini o'zida aks ettiradi;
- ta'lim olishga tayyorgarlik jarayonida erishilgan yutuqlarni, shuningdek unga erishish jarayonini ham aks ettiradi;
- dinamikada talabalar tomonidan ko'rsatilgan natijalarning barqarorligi yoki beqarorligini o'z ichiga oladi;
- natijalarga erishish shartlarini o'z ichiga oladi;

- talabning o'zi uchun ta'lim natijasi nimani anglatishi va u bunga qanchalik erishganligi haqidagi fikrini aks ettiradi.

Akademik o'zlashtirish bir nechta omillarni o'z ichiga oladi:

Bilimlar - Talaba o'qilgan mavzularni va nazariy materiallarni qanday o'zlashtirganligini ko'rsatadi.

Ko'nikmalar - Talaba olingan bilimlarni amaliyotda qo'llay olish qobiliyatini ko'rsatadi.

Kreativ fikrlash va tahlil - Talabning bilimlarni tahlil qilish, muhokama qilish va yangi xulosalar chiqarish qobiliyati.

Motivatsiya va ishtiyoq - Talabning o'zlashtirish jarayonida qanday motivatsiyaga ega ekanligi va o'qishdagi ishtiyoqi ham katta ahamiyatga ega.

Akademik o'zlashtirishni baholashda imtihonlar, testlar, amaliy ishlanmalar, loyiha va ishlar, shuningdek, kurs ishi yoki dissertatsiya kabi hujjatlar asosida talabning muvaffaqiyatlari o'rganiladi. Bu jarayon, talabning shaxsiy va ilmiy rivojlanishini ko'rsatib beradi.

Talabning oliy ta'lim muassasalaridagi o'zlashtirishiga ko'plab omillar ta'sir qiladi: moliyaviy ahvoli, sog'ligi, yoshi, oilaviy ahvoli, universitetga qadar tayyorgarlik darajasi, o'z-o'zini tashkil etish ko'nikmalari, o'z faoliyatini rejalashtirish va nazorat qilish (birinchi navbatda, ta'lim), tanlash motivlari, universitet, universitet ta'limining o'ziga xos xususiyatlari haqidagi dastlabki g'oyalarning yetarliligi, ta'lim shakli (kunduzgi, kechki, sirtqi, masofaviy ta'lim va boshqalar), universitetda o'quv jarayonining tashkil etilishi, universitetning moddiy-texnik bazasi, ta'lim darajasi, o'qituvchilar va xodimlarning malakasi, va nihoyat, talabning individual psixologik xususiyatlari.

Talabning akademik o'zlashtirishida individual-psixologik xususiyatlar muhim rol o'ynaydi, chunki har bir talabning shaxsiy xususiyatlari o'quv jarayonini qanchalik samarali amalga oshirishiga ta'sir ko'rsatadi. Bu xususiyatlar orasida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

Intellectual salohiyat - talabning aqliy qobiliyati, tafakkur darajasi, mantiqiy fikrlash qobiliyati va tezda yangi ma'lumotlarni o'zlashtirish qobiliyati akademik muvaffaqiyatga ta'sir qiladi. Ba'zi talabalar murakkab mavzularni o'zlashtirishda tezda muvaffaqiyatga erishsa, boshqalari uchun esa bu jarayon ko'proq vaqt va sa'y-harakatni talab qiladi.

Motivatsiya - talabning o'qishga bo'lgan qiziqishi va motivatsiyasi uning akademik muvaffaqiyatiga ta'sir qiladi. Motivatsiya ta'sirida talaba o'zining maqsadlariga erishish uchun ko'proq ishlashga intiladi, bu esa uning o'qish samaradorligini oshiradi.

Emotsional barqarorlik - talabning stressga, muvaffaqiyatsizlikka va qiyinchiliklarga nisbatan qanday munosabatda bo'lishi uning o'qish jarayoniga ta'sir qiladi. Emotsional barqarorlik va stressni boshqarish qobiliyati talabani ruhiy jihatdan ta'sir qiluvchi omillarni yengishga yordam beradi.

O'zini boshqarish qobiliyati - talabning vaqtni boshqarish, o'qish rejasini tuzish, o'z-o'zini tahlil qilish va o'z bilimni baholash qobiliyatlari uning akademik o'zlashtirishida muhim ahamiyatga ega. O'zini boshqarish qobiliyati talaba o'qish jarayonini muvaffaqiyatli tashkil etishiga yordam beradi.

Shaxsiy xususiyatlar - talabning ijtimoiy va kommunikativ ko'nikmalari, qat'iyatliliigi, sabri va o'ziga bo'lgan ishonchi ham akademik muvaffaqiyatiga ta'sir qiladi. Ijoiy, ijtimoiy va shaxsiy xususiyatlar talabning o'qishdagi muvaffaqiyatini oshiradi.

Har qanday faoliyatning, shu jumladan ta'limda qo'lga kiritiladigan muvaffaqiyat, birinchi navbatda, intellektual rivojlanish darajasiga bog'liq. Intellektual qobiliyatlar va faoliyat o'rtasidagi munosabatlar o'zaro dialektik bog'lanishga ega: har qanday faoliyatga samarali jalb qilish ushbu faoliyat uchun ma'lum darajadagi qobiliyatlarni talab qiladi, bu esa, o'z navbatida, qobiliyatlarning rivojlanishi va shakllanishi jarayoniga mos ravishda ta'sir qiladi.

Talabalarining muvaffaqiyati nafaqat umumiy aqliy rivojlanish va maxsus qobiliyatlarga, balki qiziqish va motivlar, xarakter xususiyatlari, temperament, shaxs yo'nalishi, o'zini o'zi anglash va boshqalarga ham bog'liq.

O'qituvchilar talabalarining individual psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda, ularni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishga yordam berishlari lozim. Shunda ular o'qish jarayonida o'z maksimal potensialiga erishishlari mumkin.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jabborova M.A. Talabalar akademik o'zlashtirishiga ta'sir etuvchi omillar // "O'zbekiston milliy universiteti xabarlari". - Toshkent. 2022, [1/10/1]. №10. - B. 82-84.
2. Jabborova M.A. Talabalar akademik o'zlashtirishining psixologik determinantlari dolzarb muammo sifatida // "Tarbiya va ta'lim jarayonining ijtimoiy hamda pedagogik-psixologik muammolari: taklif va yechimlar" mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. - Toshkent. 2022 y. - B. 263-267.
3. Адлер А. Индивидуальная психология. - Санкт-Петербург: Питер, 2017. - 256 с.
4. Ионина О.С. Проявления индивидуального стиля учебно-профессиональной деятельности студента / О. С. Ионина. - М.: - 2015. - № 212. - С. 16-20.
5. Гордеева Т.О. Психология мотивации достижения. М.: Смысл: Academia; 2006. - 336 с.
6. Маслоу А.Г. Мотивация и личность / перевод с английского А.М. Татлыбаевой. - Санкт-Петербург: Евразия, 1999. - 290 с.